



PEDAGOGIKADA LOYIHAVIY FAOLIYAT TUSHUNCHASI VA TUZILMASI

Saidova Nilufar

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (BT) yo'nalishi

1-kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15211701>

ARTICLE INFO

Received: 31th March 2025

Accepted: 10th April 2025

Published: 13 th April 2025

KEYWORDS

pedagogika, loyihaviy faoliyat, innovatsion ta'lim, amaliy tajriba, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal etish, o'quv jarayoni, ijodiy yondashuv, ta'lim samaradorligi, mustaqil o'rganish.

ABSTRACT

Loyihaviy faoliyat pedagogik jarayonda ta'lim berishning innovatsion usullaridan biri bo'lib, o'quvchilarning mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv orqali o'quvchilar amaliy tajriba orttirib, real hayotga yaqin bo'lgan muammolarni hal etish ko'nikmalarini shakllantiradi. Loyihaviy faoliyat tuzilmasi bir necha asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi: muammoni aniqlash, maqsad va vazifalarni belgilash, rejalashtirish, bajarish, natijalarni tahlil qilish va taqdim etish. Mazkur jarayon ta'limning samaradorligini oshirish bilan birga, o'quvchilarning faolligini ham kuchaytiradi

KIRISH

Hozirgi zamon mutaxassisi ishlab chiqarish va boshqaruv masalalarini mustaqil yechishi, amaliy kasbiy ko'nikmalarni mukammal egallashi, ilmiy va texnik axborotlarni o'zlashtirib, o'z bilimlarini doimiy boyitib borishi, jamiyatni rivojlanish tendentsiyalarini oldindan ko'ra bilishi, ijodiy fikrlashi va o'z fikrlarini himoya qila olishi lozim. Ammo bo'lajak mutaxassislarni bunday sifatlari o'z - o'zidan shakllanib qolmaydi. Buning uchun u uzluksiz ta'lim tizimining har bir bosqichida izchil va muntazam izlanishi, mehnat qilishi lozim.

Uzluksiz ta'lim ijodiy, ijtimoiy faol, ma'naviy dunyosi boy va raqobatbardosh yuqori malakali kadrlarni shakllanishiga zarur sharoit yaratadi. Shaxs o'zining ijodiy imkoniyatlarini amalga oshirishi uchun kasbiy ta'limning muayyan bir yo'nalishini tanlash huquqi berilgan.

Davlatning kadrlarga bo'lgan talabi va inson ehtiyojlarining o'zaro munosibligiga erishish, o'quvchi yoshlarni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash, ularning kasbiy layoqati va qiziqishlarini ilmiy metod yordamida o'rganish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Bu muammoni kelib chiqishiga asosan jamiyat va shaxs ehtiyojlarini doimo ham bir - biriga mos kelmasligi, o'quvchilar kasbni doimo ham o'zlari ongli ravishda tanlamasliklari, ularning qiziqishlari va layoqatlarini hisobga olinmasligi, aksincha atrofdagilarning xoxishlari va istaklari birinchi o'ringa chiqib qolishi sabab bo'ladi.

Zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Shu sababli, innovatsion ta'lim texnologiyalari keng joriy etilmoqda. Ular orasida loyihaviy faoliyat alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv

o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini mustahkamlash, balki ularni amaliyotda qo'llay olish qobiliyatlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Loyihaviy faoliyat – bu muayyan mavzu yoki muammo bo'yicha mustaqil tadqiqot va ijodiy izlanish jarayonini o'z ichiga oluvchi pedagogik metoddir. Bu usul o'quvchilarni faollikka undaydi, ularning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi hamda real muammolarni hal qilishga o'rgatadi.

Loyihalash metodi ta'lim texnologiyasining muhim bo'g'iniga aylanmoqda. Bu metod ta'lim oluvchilarga hayot tarziga moslashish, mustaqil, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini hosil qilishga yordam beradi.

Loyihalash (lot. projectus - olg'a tashlangan fikr, g'oya, obraz), nomini o'zi aytib turibdiki, kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish bo'lib, projekt ma'lum bir hisob-kitob, chizma va boshqalarga asoslangan holda tavsiflash, bayon qilish shaklida mujassamlashgan g'oya, fikrning ifodasidir. U bildirilgan fikrni mohiyatini va uni amalga oshirish imkoniyatlarini ochib beradi.[1; 308,312-b]

Loyihalash metodi ta'lim jarayonining muhim jihatlaridan biri bo'lib, o'qituvchining talabalar bilan individual ishlash imkonini beradi. O'qituvchi dars vaqtdan unumli foydalanib, talabalarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ular bilan yakka tartibda ishlaydi. Bunda ularning kasbiy fanlarni chuqurroq egallashlariga kengroq yo'l ochib beriladi. Loyihalash ishlarini tashkil etishda didaktik vazifaning qo'llanilishi va uni hal etish muammolari ko'rib chiqiladi.

Loyihalash metodi ta'lim oluvchilarni quyidagilarga:

- fanning turli sohalaridagi bilimlarni bir butun holga keltirib, muammolarni topish va yechish, axborotlar oqimida mo'ljal olish;
- faoliyatni tanlash huquqidan foydalanib, turli taxmin, g'oyalarni ilgari surish, tadqiqot o'tkazish, tahlil qilish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini aniqlash;
- o'z faoliyati natijasiga mas'ul bo'lish, mustaqil qaror qabul qilish, yutuqlar va kamchiliklarni aniqlash, uning sabablarini qidirish, xatolarni topish va to'g'rilash;
- turli yechim. takliflarning natijalarini ilmiy taxmin qilish (prognozlash);
- jamoada ishlash, turli nuqtayi nazar, fikrlarning muhokamasida qatnashishga rag'batlantiradi.[2; 200-b]

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Loyihalash metodini qo'llab, dars o'tish jarayonida o'quvchi, talabalarning vazifasi:

- iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq, ijtimoiy ahamiyatga ega ishni bajarish, mahsulot ishlab chiqarish, ilmiy-texnik, iqtisodiy va boshqa muammoni belgilangan vaqt davomida yechish yoki yechish uchun takliflar ishlab chiqish.

O'qituvchining vazifasi:

- o'quvchi, talabalarni mustaqil ijodiy faoliyatlarini unumli bo'lishi uchun sharoit yaratish.

Bu metodni iqtisodiy fanlarni o'rganishdagi muhim ahamiyati shundaki, talabalar biznes-reja tuzishni, turli tanlovlarda qatnashish uchun loyihalar ishlab chiqishni o'rganadilar. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarni qanday tashkil etishning texnologik xaritasini ishlab chiqish, ya'ni darsni qanday o'tkazishni mufassal rejasini ishlab chiqishni, umuman olganda, o'z

faoliyatlarini rejalashtirishni o'rganadilar. Shu bilan birga mazkur metodning o'ziga xos xususiyatlari mavjudki, ularni, albatta, hisobga olish zarur.

Birinchi, bu metodni mavzular, alohida predmetlar bo'yicha qo'llash juda qiyin. Chunki, bir muammoning kelib chiqish sabablari nihoyatda xilma-xil. Ularni bir fan doirasida hal qilish qiyin.

Ikkinchi, barcha o'quvchilar ham loyiha tayyorlab, qo'yilgan muammoni yecha olmaydi.

Uchinchi, bu metod o'qituvchidan chuqur bilim, tajriba, o'z ustida tinimsiz ishlash, turli loyihalarda shaxsan qatnashishini talab qiladi.[3; 80-b]

Loyihalash metodini qo'llash uchun birinchi navbatda loyihalash obyektini aniqlaymiz. Qanday masala, muammo mavjudki, uni yechib loyihaning natijasini qanday bo'lishini belgilaymiz.

1. Bu o'tilayotgan mavzu bo'yicha qo'yilgan savol yoki yechimini kutayotgan dolzarb masala bo'lishi mumkin. Loyiha o'quvchilarning o'z xohishlari, qiziqishlariga ko'ra tanlagan ilmiy izlanishlari bo'lishi mumkin yoki o'qituvchi taklif qilishi mumkin. Har ikkala holda ham o'quvchilar zarur axborotlarni to'plashlari, ularni tahlil qilishlari zarur. Tahlil asosida qaror qabul qilib, loyiha ishlab chiqishdan maqsad qo'yiladi va qanday natijaga erishilishi belgilanadi.

2. Maqsadni aniqlagach, loyihaning mazmunini belgilaymiz.

3. Reja asosida amalga oshirish uchun vazifalar belgilanadi, ya'ni faoliyat rejasi ishlab chiqiladi. Loyihaning umumiy tavsifi oydinlashadi. Aniq faoliyatga asos yaratiladi. Loyihani amalga oshirish uchun tuzilgan reja aniq bo'lishi, haddan tashqari murakkab bo'lmasligi kerak. Umumiy rejadan tashqari haftalik va oylik rejalar tuziladiki, uning asosida talaba bajaradigan ishlarni yanada oydinlashtiradi.

4. Loyiha qatnashchilari belgilanadi. Loyiha qatnashchilari o'z qiziqishlari, fikr doiralari bilan bir- birlariga yaqin, yordam beruvchi o'quvchi, talabalar bo'lib, ularni loyihada qo'yilgan maqsad birlashtiradi.

Ularni yoniga keyinchalik boshqa qatnashchilar ham qo'shilishi mumkin. Lekin qatnashchilar haddan tashqari ko'payib ketishi salbiy oqibatlariga olib keladi. Shuning uchun loyihada har bir qatnashuvchining bajaradigan vazifasi aniq yozib qo'yiladi.

5. Loyihani amalga oshirish muddatlari belgilanadi. Agarda u bosqichlarga bo'linsa, uni har bir muddatlari bilan ko'rsatiladi.

6. Loyihalash va uni amalga oshirishning bosqichlari:

1- bosqich. Loyihani ishlab chiqish. Unda loyihani amalga oshirish shakllari va vositalari, bosqichma-bosqich natijalari ham ko'rsatiladi.

2- bosqich. Loyihada belgilangan vazifalar bajariladi. Bu bosqichda talabalar mustaqil ravishda individual va guruh bo'yicha qo'yilgan vazifalarni bajaradilar. Material, axborot to'playdilar. To'plangan ma'lumotlarni muhokama qiladilar. Jadvallar, grafiklar ishlab chiqadilar. Namoyish etiladigan, illyustrativ materiallar tayyorlashadi.

3- bosqich. Loyihaning barcha qatnashchilari tomonidan tayyorlangan ishlar bir butun qilib birlashtiriladi. Avval loyihaning xoniaki varianti yozib chiqiladi. So'ngra yakuniy variant tayyorlanadi. Rasmiy talabalar asosida taxlanadi.

4- bosqich. Loyihaning so'nggi varianti ekspertga, taqr ga beriladi. Bunda matn aniq asoslangan bo'lib, bajarilgan ishlarning mazmuni va erishilgan natijalarni gavdalantirishi kerak. Matilda, albatta, jadvallar, grafiklar, chizma, dasturlar va boshqa shunga o'xshash materiallar bo'lishi shart.

5- bosqich. Ish taqrizga beriladi. Loyihaga ekspert xulosasi olinadi, tashqi taqriz natijasini elon qilingach, lugallangan hisoblanadi.

6- bosqich. Loyiha taqdimoti. Taqdimot loyihada bajarilishi belgilangan mezonlar asosida jyuri yoki komissiya a'zolari tomonidan baholanadi. Jyuri a'zolari tarkibi loyiha ishlab chiqilayotganda aniqlanadi. Tayyorlangan loyihani ko'rib chiqib, tanlanib, so'ngra tayyorlangan hisobot ko'rib chiqiladi.[7; 321, 326-b]

Hay'at ishni baholashi uchun baholash mezonlari ishlab chiqiladi. Bu mezonlar muammoni o'rganish darajasi, matnni aniq. tushunarli tarzda bayon qilinishi, o'ziga xosligi, rasmiylashtirish sifati, ko'rgazmali, namoyish materiallardan foydalanilgani, berilgan takliflar va ularni muammoni yechishga yordam berishi va boshqa jihatlarini mujassamlashtirilgan bo'lishi kerak. Dars jarayonida kichik guruhlar tayyorlagan loyihalarni o'qituvchi boshchiligida talabalardan tuzilgan hay'at baholashi mumkin.

O'quvchilar tomonidan tayyorlangan loyihalarni baholash mezonlari

T/r	Mezonlari	Eng yuqori ball
1	Tanlangan muammoning dolzarbligi	5
2	Muammroni o'rganilganlik darajasi	5
3	Maqsad va vazifalarni aniq, tushunarli tarzda bayon qilinishi	5
4	Tanlangan muammoning qisqacha mazmunini yoritish	5
5	Bajarilgan ishning qisqacha mazmunini yoritish	5
6	Ko'rgazmali namoyish materiallaridan foydalanish	5
7	Loyihani amalga oshirish uchun zarur moliyaviy resurslar, ularning manbalarini ko'rsatilishi va asoslanishi	5
8	Rasmiylashtirish sifati	5

1- Jadval

TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagogikada loyihaviy faoliyat quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

Amaliy yo'nalganlik – o'quvchilar o'rganayotgan mavzulari bo'yicha haqiqiy hayotga yaqin bo'lgan loyihalarni ishlab chiqadilar.

Mustaqillik – loyiha ustida ishlash jarayonida o'quvchilar mustaqil ravishda axborot to'plash, tahlil qilish va natijalarga erishish ko'nikmalarini shakllantiradilar.

Tadqiqot yondashuvi – loyiha ishi jarayonida o'quvchilar ilmiy izlanish usullaridan foydalanib, o'z mulohazalarini asoslab bera oladilar.

Loyihaviy faoliyat aniq bosqichlardan iborat bo'lib, uning samaradorligi shu bosqichlarning to'g'ri tashkil etilishiga bog'liq. Quyida loyihaviy faoliyatning asosiy bosqichlari keltirilgan:

1. Muammoni aniqlash – loyiha mavzusi tanlanadi va muammo doirasi belgilanadi.
2. Maqsad va vazifalarni belgilash – loyiha natijasi qanday bo'lishi lozimligi aniqlanadi.
3. Rejalashtirish – loyiha bosqichlari va uning bajarilish muddati belgilab olinadi.
4. Bajarish jarayoni – o'quvchilar loyiha ustida ishlaydilar, ma'lumot to'playdilar, izlanish olib boradilar.
5. Natijalarni tahlil qilish – loyiha bo'yicha xulosa chiqarilib, erishilgan natijalar baholanadi.
6. Taqdimot – loyiha natijalari sinf yoki keng jamoatchilik oldida taqdim etiladi.

Loyihaviy ta'lim metodlari o'quv jarayonini yanada interfaol va samarali qiladi. Uning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

O'quvchilarning mustaqil izlanish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Tanqidiy va tizimli fikrlash qobiliyatini shakllantiradi.

O'quvchilar o'rtasida hamkorlik va jamoaviy ishlash madaniyatini mustahkamlaydi.

Real hayotga yaqin bo'lgan vaziyatlar orqali muammolarni hal qilish ko'nikmalarini o'rgatadi.[8; 408, 414-b]

Pedagogik faoliyat jarayonida loyihalash metodini amalga oshirish bosqichlari

Bosqichlar	Mazmuni	Metodi
1-bosqich, tayyorgarlik	O'qituvchi o'quvchilarga iqtisodiyotda qanday muammolar bor, o'zlari uchun qiziqarii bo'lgan muammolarni tanlashlarini taklif qiladi yoki topshiriqlami o'zi Aqliy hujum. Mustaqil ish tayyorlaydi.	Aqliy hujum. Mustaqil ish
	O'quvchi o'quvchilarga loyihalash mazmuni, loyihalash ob'yekti, usullari, bosqichlari haqida ma'lumot beradi.	Bayon qilish
2-bosqich	O'qituvchi o'quvchilarni kichik guruhlariga bo'ladi. Har bir kichik guruhga o'zlarini qiziqtirgan muammoni tanlash va uni yechish bo'yicha loyiha tayyorlashni topshiradi.	Ixtiyoriy

3-bosqich	O'qituvchi loyihani qanday tayyorlashni tushuntiradi. O'quvchilar faqat loyiha tayyorlaydilar. Uni amalga oshirish talab qilinmaydi (chunki uni bir dars jarayonida amalga oshirib bo'lmaydi).	Bayon qilish
Asosiy qism	O'quvchilar loyiha tuzishga kirishadilar. Loyihalar taqdimoti qilinadi.	Mustaqil kichik guruh
Yakuniy qism	O'qituvchi o'quvchi-o'quvchilarni baholaydi. Xato va kamchiliklarni ko'rsatadi. Darsni umumlashtiradi va yakunlaydi.	

2- Jadval

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy insonning o'qish jarayoni faqat bog'cha, umumta'lim maktablari, akademik litseylar yoki kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalari bilan tugamaydi. Inson butun umri davomida ta'lim olishi zarur, ya'ni ta'lim uzluksiz bo'lishi kerak. Demak, uzluksiz ta'limda pedagogik jarayonni loyihalash – davr talabidir. Pedagogikada loyihaviy faoliyat ta'lim samaradorligini oshirishda muhim metodlardan biri hisoblanadi. U o'quvchilarga nafaqat bilim berish, balki ularni hayotiy vaziyatlarga moslashishga, muammolarni mustaqil hal qilishga o'rgatishga xizmat qiladi. Shunday qilib, loyihaviy yondashuv zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanib, o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Atayeva N. va boshqalar. Umumiy pedagogika. O'quv qo'llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2011 yil. 308,312-b
2. Rashidov H.F. va boshqalar. 'Kasbiy pedagogika' blokini o'qitish metodikasi. /O'quv-uslubiy qo'llanma (Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari uchun). –T.: O'MKHTTKMO va UQTI, 2007. – 200 b.
3. Sarsenbayeva R.M., Doniev B.B. Umumiy pedagogika. /O'quv-uslubiy qo'llanma. Samarqand: SDCHTI, 2008. – 80 b.
4. Mavlonova R., To'rayeva O., Holiqberdiev K. Pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2002
5. Munavvarov A. Oila pedagogikasi. Qo'llanma. T. 1998
6. Yo'ldoshev J., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2009. – 608 bet.
7. Mahmudov M. O'quv materialini didaktik loyihalash tizimi. «Pedagogik mahorat», 2002 yil, 3-son. 321, 326-b
8. Mahmudov M. Ta'lim natijasini loyihalash. // «Pejagogik mahorat», 2003 yil, 1-son. 408, 414-b

9. Oliy pedagogik o'quv yurtlarining o'quv jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishning ilmiy asoslari. Respublika ilmiy-metodik konferentsiyasining materiallari. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2000

